
ABDULLOH BIRINCHI O'RINGA MUNOSIB DEB TOPILDI

Kuni kecha Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi akademik litseyda Xalq ta'limi vazirligi, Germaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi va Gyote Institutining Toshkentdagi filiali ko'magida umumta'lim maktablarining 9-10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida «Nemis tilida ifodali o'qish» bo'yicha tanlovining 2-bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovda Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 10-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Abdulloh Xalilov muvaffaqiyatli ishtirok etib, 1-o'ringa munosib deb topildi.

Tanlov yakunida ishtirokchilar tadbir tashkilotchilari tomonidan diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-16 09:48:50